

Date: 19th March-2026

YOLG'IZLIKNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Niufar Temirova

Ijtimoiy fanlar kafedrası dosenti, Guliston davlat universiteti

E-mail: Tel.:

Annotatsiya. Maqolada yolg'izlik fenomenining turli jihatları va yolg'izlikning sabablari qarab chiqilgan. Yolg'izlik va izolyatsiyaga ta'riflar berilgan. Bir qator mualliflarning ilmiy ishlari asosida sotsiologik, madaniy, psixologik va ijtimoiy-falsafiy o'lchovlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yolg'izlik, yolg'izlik fenomeni, ijtimoiy muammo, yo'nalish, izolyatsiya, munosabat, kommunikatsiya.

ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ ОДИНОЧЕСТВА

Нилуфар Темирова

доцент кафедры социальных наук

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В статье рассмотрены различные аспекты феномена одиночества и причины одиночества. Даны определения одиночеству и изоляции. На основе научных работ ряда авторов раскрыты социологическое, культурное, психологическое и социально-философское измерения.

Ключевые слова: одиночество, феномен одиночества, социальная проблема, направление, изоляция, отношение, коммуникация.

CAUSES AND CONSEQUENCES OF LONELINESS

Nilufar Temirova

Associate Professor of the Department of Social Sciences

Gulistan State University

Abstract. The article examines various aspects of the phenomenon of loneliness and the causes of loneliness. Definitions of loneliness and isolation are given. Based on the scientific works of a number of authors, sociological, cultural, psychological and socio-philosophical dimensions are revealed.

Key words: loneliness, the phenomenon of loneliness, social problem, direction, isolation, attitude, communication.

Kirish. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida uni o'rab turgan atrofdagi olam, jamiyat va boshqa odamlar bilan o'zaro bog'lanmasdan yashay olmaydi. Uning ichki dunyosi



Date: 19th March-2026

aynan ijtimoiy aloqalarga bog'liq, o'zgalardan alohida yashaganida u bir qator ham ijobiy, ham salbiy funktsiyalaridan ajraladi. Hozirgi jahon integratsion va globalizatsion jarayonlar, bir tomondan, odamlarning birlashuviga, davlatlar o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishiga, jamoa rolining dolzarblashuviga olib kelsa, boshqa tomondan, alohida individ ushbu global dunyoda o'z muammolari bilan tanho qoladi va, demak, yanada yolg'izroq bo'ladi.

Yolg'izlik muammosi bugun paydo bo'lmagan, u zamonaviy postindustrial jamiyati sharoitlarida insoniyat uchun global miqyosdagi dolzarb muammolardan bo'lib qoldi. Yolg'izlik – insoniyat rivojining zamonaviy bosqichidagi eng murakkab va hal qilinishi og'ir kechadigan ijtimoiy muammolardan biridir. U insoniyat mavjudligining ajralmas qismidir. Yolg'izlik nafaqat har qanday fikrlash jarayoni va shunga mos ravishda ijodkorlik uchun zarur shart, balki boshqa ijodiy ibtidoi – kommunikatsiyani, muloqotni rad etadigan va shaxsni o'z tor doirasida yopib qo'yadigan og'ir destruktiv omildir. Yolg'izlik murakkab va dolzarb ijtimoiy fenomen bo'lib, u turli-tuman fanlarni (falsafiy antropologiya, ijtimoiy falsafa, psixologiya, sotsiologiya va hatto psixopatologiyani) o'rganish chorrahasida joylashgan hodisadir.

Metodologiya va metodlar. Yolg'izlik fenomenining ko'plab ijtimoiy guruhlarda tarqalishi uni nafaqat falsafiy anglanishini, balki boshqa gumanitar fanlar nuqtai nazaridan tadqiq etilishini taqozo qiladi. Ijtimoiy ilm-fan yolg'izlik muammosiga uzoq davr mobaynida kam e'tibor qaratgan. XX asr sovet davriga oid ijtimoiy-gumanitar adabiyotlarda asosan kollektivizmga, ya'ni jamoachilikka e'tibor berilib, yolg'izlik individualistik kapitalistik jamiyatning predikati deb e'lon qilingan edi. Bugun esa yolg'izlik hissi nafaqat inson jamoadan tashqarida, yakka o'zi qolganidagina vujudga kelmay, balki uni tashqi tomondan ancha bardam, muvaffaqiyatli bo'lgan, oilasi, farzandlari, ishi, do'stlari bor odamlar ham boshdan kechirishi mumkinligi ko'rinib turibdi.

Bugungi kunda adabiyotlarda yolg'izlik odamning boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish potentsial imkoniyatiga ega bo'lsa-da, lekin buni qilmasa, ijtimoiy aloqalardan ongli ravishda mahrum bo'lishi (L. P. Grimak [2]), yoki ijtimoiy begonalashuv (S. G. Maksimova [5], O. V. Levina) [4] sifatida, ba'zida ijtimoiy aloqalarning yo'qligining og'riqli kechishi tajribasi (N.V. Pushina [14]), ba'zida esa jinsiy sherikning, o'z oilasining yo'qligi (N. Xamitov [20, b.154-155], A. Z. Rubinov [16]), ayrim xollarda psixologik kechinma sifatida namoyon bo'lib, bu insonning ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga emas, balki xarakteriga bog'liq bo'lishi (T.V. Zozulya [3]), ba'zan esa yolg'iz yashash (A.I. Tascheva [19]), yoki ijtimoiy izolyatsiya (B.Myulleneisen [8]) sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, ilmiy adabiyotlarda yolg'izlikning mohiyati va mazmuni haqida turli fikrlar uchraydi. Asosan ko'pchilik nazariyalar G'arb, shu jumladan amerikalik olimlarning ishlariga asoslanadi. Masalan, amerikalik tadqiqotchilar L.Peplo va D.Perlman yolg'izlikni anglashning 8 xil yondashuvini sanab o'tishadi va tavsiflaydilar: psixodinamik (D.Zilburg, G.Sullivan, F.Fromm-Reyxman va b.), fenomenologik (K.Rojers, D.Mur, P.Edi va b.), ekzistensial (K. Mustakas, M. Buber va b.), sotsiologik (K. Boumen, D. Rismen, P. Sleyter



Date: 19th March-2026

va b.), interaksionistik (R. Veys, V. Serma va b.), kognitiv (L. E. Peplo va uning hamkasblari), intim (V. Derlega, S. Margulis va b.), umumtizimli (D. Flanders va b.) [11].

Olimlar tomonidan yolg'izlik fenomeni asosan 3 yo'nalishda – falsafiy, psixologik va sotsiologik jihatdan o'rganilgan. Jumladan, M.V.Proxorova psixologiya, falsafa va sotsiologiyada yolg'izlik fenomenini o'rganish tahlili asosida yolg'izlikning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan belgilarini tahlil qilgan [12]. D.Z.Muzashvili yolg'izlik fenomenining ijtimoiy falsafa tarixida o'rganilishini nazariy va metodologik jihatdan umumlashtirish va tizimlashtirishga harakat qilgan [7]. T.R.Rashidova [15] falsafiy tafakkur tarixida yolg'izlik tushunchasining evolyutsiyasini o'rganib chiqdi, turli tarixiy davrlarda bu muammoni talqin qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqladi. J.V.Puzanova yolg'izlik hodisasini o'rganish uchun turli usullardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qildi va empirik tadqiqot o'tkazdi [13]. D.A.Mateyev yolg'izlik fenomeni va muloqot buzilishi muammosini tahlil qildi [6]. M.Yuldasheva yolg'izlik hissining nazariy yondashuvlarini psixologiya nuqtai nazaridan o'egandi [23].

Maqolani yozishda yolg'izlik muammosiga oid ilmiy adabiyotlarning tahlili, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. L.Peplo va D.Perlmanning ta'kidlashlaricha, yolg'izlik fenomenini zamonaviy talqin qilishning barcha xilma-xilligi bilan ko'pchilik olimlar uchta aksiomani tan olishadi: “1. Yolg'izlik insonning ijtimoiy aloqalari yo'qligidan yoki defitsitidan kelib chiqadi. 2. Yolg'izlik sub'yektiv holat bo'lib, har doim ham ob'yektiv ijtimoiy izolyatsiyaga to'g'ri kelmaydi. 3. Yolg'izlik holati shaxs tomonidan salbiy qabul qilinadi va azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi» [11]. Ushbu fikrlarda ayrim noaniqliklar bor. Birinchidan, ijtimoiy aloqalar defitsiti nafaqat miqdor jihatidan, balki sifat jihatidan ham baholanishi mumkin. Ikkinchidan, yolg'izlikning sub'yektiv xolatini boshqa kechinmalardan, masalan, depressiyadan, zerikishdan va hokazolardan ajrata olish qiyin. Uchinchidan, yolg'izlik har doim ham salbiy baholanmaydi. Bundan tashqari, inson o'zini o'zi past baholasa, uning xulk-atvori, atrofdagilar bilan munosabatlari qoniqarsiz bo'lib, yolg'izlik uchun sabab bo'ladi [10; 22].

Shuni ta'kidlash kerakki, yolg'izlik fenomenini o'rganishning falsafiy yo'nalishida yolg'izlik insondagi doimiy ontologik belgi sifatida qaralsa, psixologik yo'nalishda inson ongining vaqtincha paydo bo'ladigan ma'lum xolati deb qaraladi (masalan, o'tib ketadigan his-tuyg'u yoki kechinma). R.S.Nemov aytganidek: “Yolg'iz odam o'zini boshqalardek his qilmaydi va o'zini yoqimsiz shaxs deb hisoblaydi. Uni hech kim yaxshi ko'rmaydi va hurmat qilmaydi, deb o'ylaydi. Yolg'iz odamning o'ziga nisbatan bunday munosabati ko'pincha o'ziga xos salbiy affekrlar (g'azab, qaug'u, chuqur baxtsizlik va hk.) bilan birga kechadi. Yolg'iz odam ijtimoiy aloqalardan qochadi, o'zini boshqa odamlardan uzoq tutadi (izolyatsiya qiladi). Boshqa odamlardan farqli o'laroq, unga paranoidlik hissi xos bo'lib, bu his ortib borayotgan shubha, impulsivlik, haddan tashqari asabiylashish, qo'rquv, tashvish, haddan tashqari ko'ngilsizlik, umidsizlikni o'z ichiga oladi” [9].

Yolg'izlik nafaqat chuqur shaxsiy, balki shu bilan birga jiddiy ijtimoiy muammo bo'lganligi sababli, yolg'izlikni o'rganishga insonning boshqa odamlar bilan bo'lgan



Date: 19th March-2026

munosabatlari tizimidan kelib chiqqan holda yondashish juda amaliy va tabiiy ko'rinadi. Tarixan katta guruhlarda rivojlangan ijtimoiy mavjudot sifatida insonda o'z turi bilan, o'ziga o'xshash bo'lganlar bilan doimiy muloqot qilish zarurati filogenetik jihatdan mustahkamlangan. Yolg'izlikning sabablari shaxsdan, individdan tashqarida ekanligini tan olib, ko'plab tadqiqotchilar ularni turlicha ta'riflaydilar; "yolg'izlik" tushunchasi har xil olimlar tomonidan bir xil ma'noda ishlatilmaydi. Masalan, O. V. Levina yolg'izlikni boshqa odamlardan, jamiyatdan, "umumiy tan olingandan" va insonning shaxsiy manfaatlariga va ehtiyojlariga zid bo'lgan barcha narsalardan begonalashishning jismoniy, fiziologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tuyg'usi sifatida belgilaydi [4]. U yolg'izlikning bir nechta tipologiyasini taqdim etadi va begonalashuv bir necha darajalarda sodir bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi: shaxs-transsendental (o'z-o'zini begonalashtirish), shaxsiyat-shaxs, shaxs-ijtimoiy guruh, shaxs-jamiyat (davlat). Ijtimoiy muhitdan begonalashish xarakteriga ko'ra tabiiy va sun'iy yolg'izlik farqlanadi. Tabiiy yolg'izlik, o'z navbatida, ixtiyoriy (zohid rohib) va majburiyga (Robinzonada effekti) bo'linadi. Sun'iy yolg'izlik esa, muallifning fikricha, deyarli har doim ijtimoiy jihatdan belgilanadi, ya'ni ijtimoiy determinatsiyalangan bo'ladi.

Yolg'izlik sabablarining sotsiologik nuqtai nazarini U.Sadler va T.Jonsonlar keltirgan [18]. Shaxsiy dunyoning tashqarida rivojlanishi va tarqalishiga xos bo'lgan to'rtta mumkin bo'lgan yo'nalishga muvofiq, ular yolg'izlikning to'rtta o'lchovini ajratadilar: kosmik, madaniy, ijtimoiy va shaxslararo. Ularning nuqtai nazari bo'yicha eng murakkab bo'lgan kosmik o'lchov o'z-o'zini idrok etishning kamida uchta turli shakllariga murojaat qilish uchun ishlatiladi:

- 1) o'zini yaxlit voqelik sifatida anglash, buning natijasida inson tabiat va kosmos bilan bog'lanadi;
- 2) Xudoga yoki borliqning tubiga nihoyatda yaqin bo'lgan hayotning tasavvufiy (mistik), sirli tomonlariga aralashish;
- 3) insonning o'z taqdirining o'ziga xosligiga yoki buyuk tarixiy maqsadlarga daxldorligiga ishonchi.

Madaniy o'lchovdagi yolg'izlik begonalashuvning ma'lum shakllari, shaxs va madaniyat o'rtasidagi uzilish va hatto anomianing asosida yotadi. An'anaviy qadriyatlar va me'yorlardan uzilish tuyg'usidan kelib chiqadigan ichki iztirobni boshdan kechirayotgan odamlar ko'pincha yolg'izlik tuyg'ularini aytib berishadi, ular hatto bu tuyg'ularni tushuntirib bera olmaydilar. Madaniy yolg'izlik, shuningdek, odamlar o'zlarining madaniy meroslari bilan aloqalari uzilgan yoki umum qabul qilingan madaniyat ularning ichki dunyosi uchun nomaqbul ekanligini his qilganda, kichik guruhlarda ham namoyon bo'ladi. Bunday turdagi yolg'izlik shiddatli ijtimoiy o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan jamiyatlarda mavjud.

Yolg'izlikning ijtimoiy jihatini o'rganishda "ijtimoiy" tushunchasi birinchi navbatda butun jamiyatning o'ziga emas, balki jamiyatdagi maxsus guruhlariga nisbatan qo'llaniladi. Ayniqsa, bunday yolg'izlikning keskin shakllari ijtimoiy izolyatsiya tushunchalari bilan ko'rsatiladi: badarg'a qilish yoki haydab chiqarish, ostrakizm, rad etish

Date: 19th March-2026

yoki tan olmaslik. Bunday turdagi yolg'izlik, odam o'zini guruh tomonidan rad etilganini his qilganida paydo bo'lishi mumkin. Zamonaviy dunyoda ushbu turdagi yolg'izlikning o'sishiga jamiyatning parchalanishi, yuqori darajadagi harakatchanlik yoki mobillik, an'anaviy ijtimoiy chegaralarning noaniqligi, an'anaviy guruhlarning parchalanib ketishi va o'z o'rniga da'vogar bo'lgan guruhlarning qisqa umri kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

U.Sadler va T.Jonsonlar tomonidan taklif qilingan yolg'izlik modeli uni insonning individual fojialarining potentsial manbai va sababi deb hisoblash imkonini beradi. Yolg'izlikning ijtimoiy yo'nalishining asosiy muammosi shundaki, na ijtimoiy yoki shaxsiy munosabatlarning biron bir turini to'xtatish, na hattoki insonning to'liq ijtimoiy izolyatsiyasi ham unda yolg'izlik tuyg'usining paydo bo'lishi bilan bir xil tarzda bog'lab bo'lmaydi. U.Sadler va T.Jonsonlar yolg'izlikni zamonaviy jamiyatdagi universal hodisa deb atashadi va yolg'izlik insonning bu olamda kim ekanligini anglashga yordam beradi, deb ta'kidlaydilar [23].

Ijtimoiy gerontologiya bo'yicha lug'at-ma'lumotnomada yolg'izlikning ta'rifi quyidagicha: "Yolg'izlik - bu ijtimoiy, kasbiy yoki boshqa aloqalarning torayishi yoki yo'qligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy-psixologik holatdir. Yolg'izlik boshqalardan qisman ("birgalikda yolg'izlik") yoki to'liq izolyatsiya natijasida vujudga kelishinmumkin. Ba'zi hollarda inson ob'yektiv yoki sub'yektiv sabablarga ko'ra o'z ixtiyori bilan yolg'izlikni tanlaydi. Yolg'izlik insonning yaqinlari bo'lmagan, jismoniy nuqsonlari, nogironligi yoki yashash joyining uzoqligi sababli hayotning majburiy shakli bo'lishi mumkin. Ortirtilgan, vaqtinchalik yolg'izlik yanada keskinroq boshdan kechiriladi, bu yaqinlar, qarindoshlar, do'stlar, masalan, ularning o'limi, yashash joyini o'zgartirishi yoki keskin ziddiyatli vaziyat tufayli yo'qolishi natijasida yuzaga keladi" [17]. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, yolg'izlikni talqin qilishning sotsiologik yondashuvi doirasida maqomli (statusli) yolg'izlikni ajratib ko'rsatish kerak. Bu shaxsning haqiqiy ijtimoiy mavqei, ijtimoiy maqomi bilan belgilanadi: bo'ydoq, qari qiz, beva erkak yoki beva ayol. N. Xamitov maqomli (statusli) yolg'izlikni tavsiflab, o'ziga singib yopilgan yolg'izlik irodasi bo'ydoq va qari qizning paydo bo'lishiga olib keladi, degan xulosaga keladi [20, b.37].

Yolg'izlik ob'yektiv va sub'yektiv omillar asosida tasniflanishi mumkin. D.A.Mateev yolg'izlikning 4ta turini ajratadi: yolg'izlik-yakka turishlik yoki yolg'iz yashashlik (shaxsning sotsiumdan, jamiyatdan ajralishi, buning natijasida "Men" u va jamiyat o'rtasida yangi aloqalarga ega bo'ladi), yolg'izlik-izolyatsiya ("boshqadan" yoki jamiyat tomonidan sub'yektni majburan uzoqlashtirish), yolg'izlik-o'zini o'zi izolyatsiya qilish (boshqa odamlardan begonalashish, ular bilan aloqa qilishning mumkin emasligi va o'zini o'zgalardan o'z dunyochasida izolyatsiyash, berkitish), mutlaq yolg'izlik (total ichki disgarmoniya, kelishmovchilik, uning sababi, "Men"ning fikricha, uning o'zi emas, balki u o'z irodasiga xilof ravishda tashlangan past, unga dushman hisoblangan dunyo, koinot sababchi bo'lib, sub'yektning o'zini-o'zi tushuna olmasligi, o'zining dunyoga bo'lgan munosabatini anglay olmasligi, shuningdek, o'zining dunyo bilan o'zaro munosabatlarini idrok eta olmasligi bilan tavsiflanadi) [6, b.25].



Date: 19th March-2026

Shunday qilib, yolg'izlikni tadqiq etishning ijtimoiy yo'nalishi yolg'izlikni insonning boshqa odamlar bilan munosabatlari tizimidagi ma'lum bir pozitsiyasi sifatida ko'rib chiqadi. Shu ma'noda, ba'zi tadqiqotchilar uchun "yolg'izlik" ba'zan "izolyatsiya" tushunchasiga yaqinlashadi va aniq ifodalangan vaqtinchalik xususiyatga ega bo'ladi. Bunday nazariyaga misol sifatida B.Myullenayzen taqdim etgan kontseptsiyani keltirish mumkin. Izolyatsiya deganda u jismoniy makonning torayishini va "hayot qafasda yashashga o'xshaydi" degandek, boshqa odamlar bilan aloqa qila olmaslikni nazarda tutadi [8]. L.P.Grimak mutlaq va nisbiy yolg'izlikni ajratadi va bunday farqlashning mezonini deb insonning izolyatsiya bo'lganligining darajasini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, mutlaq yolg'izlik nisbatan kam uchraydi, ko'pincha baxtsiz hodisalar (shaxtaning qulashi, dengizdagi kimsasiz joydagi hodisa va boshqalar) natijasidir [2]. Izolyatsiyaning davomiyligi, darajasi va kelib chiqishi jihatidan nisbiy yolg'izlikning shakllari xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan, nisbiy yolg'izlik sharoitida professional faoliyatning ko'plab turlari sodir bo'ladi, bunda boshqa odamlar bilan aloqa faqat vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi (qiruvchi uchuvchilar, transport vositalari haydovchilari, kosmonavtlar va boshqalar). Odatiy kommunikativ aloqalarning buzilishi tufayli ham nisbiy yolg'izlikning turli darajalari yuzaga kelishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash joizki, bir tomondan, ijtimoiy jihatdan yakkalanib qolgan odamlarning hammasi ham o'zlarini yolg'iz his qilishmaydi, boshqa tomondan, yolg'izlik nikohda ham bo'lishi mumkin. Izolyatsiyaning roli ko'p jihatdan odamning bu holatga bergan ahamiyatiga, ma'nosiga bog'liqdir. Izolyatsiya ko'pincha og'riqli bo'lishi kutiladi, shuning uchun u bolalar va jinoyatchilar uchun jazo turi sifatida ishlatiladi. Ammo ba'zida izolyatsiya qilingan odamlar yolg'iz qolganlikdan zavqlanishadi, ular hattoki o'zlarini mahrum his qilish o'rniga, samarali kashfiyotlar qilish va hatto o'z-o'zini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat topa oladilar. Shunday qilib, "yolg'izlik" va "izolyatsiya" tushunchalarini bir-biriga moslashtirishni to'g'ri deb hisoblash mumkin emas. Ob'yektiv ravishda yuzaga keladigan va sub'yektiv ravishda qabul qilinishi mumkin bo'lmagan izolyatsiyadan farqli o'laroq, yolg'izlik "boshqa" odamlar dunyosi bilan munosabatlarining nuqsonli ekanligiga e'tibor qaratib, odamning o'zi bilan ichki, reflektiv kelishmovchiligini qamrab oladi.

Shuningdek, bizning fikrimizcha, "yolg'izlik" va "yolg'iz turmush tarzi" tushunchalarini farqlash kerak. Bu tushunchalar o'zaro bog'liq, ammo sinonim emas, shuning uchun ularni bir-biri bilan moslashtirib bo'lmaydi. "Yolg'iz turmush tarzi - bu shaxsning o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy salomatligi tufayli tanlanadigan jismoniy holatdir. Bu, eng avvalo, o'zini boshqalardan ajratib qo'yish istagi, o'z turmush tarzini, ichki osoyishtaligini, mustaqilligi va barqarorligini begona va hatto yaqin qarindoshlar bosqinidan himoya qilish istagidir [21]".

Shunga e'tibor qaratish zarurki, yakka o'zi yashayotgan inson va yolg'iz inson – bir xil 'noni bildirmaydi. Aksincha, hatto katta oilada yoki ko'p kishilar istiqomat qilayotgan yotoqxonada yashayotgan inson ham yolg'iz bo'lishi, yolg'izlikdan aziyat chekkan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, introvertlar sukunat va yolg'izlikni yaxshi ko'radilar va omma oldida bo'lgandan keyin yolg'iz qolish zarurligini his qiladilar. V. D. Alperovichning

Date: 19th March-2026

ta'kidlaganidek: yolg'iz yashovchi hamma odamlar ham yolg'izlikdan aziyat chekmaydi, ma'lum bir turdagi odamlar o'z yolg'izligini himoya qiladi va qadrlaydi [1, b.55].

Xulosa va tavsiyalar. Hozirgi kunda ijtimoiy-gumanitar adabiyotlarda yolg'izlik bilan bog'lik bo'lgan turli omillarni tadqiq qilishda 2ta yo'nalish mavjud. Biri yolg'izlik ehtimoli vujudga keladigan vaziyatlarni (ajrajganlar, beva qolganlar, kasalxonada yotgan odamlar orasidagi muloqot vaziyatlari, yashash joyini o'zgartirgan kishilarning shaxsiy xolatlari) ko'rib chiqsa, ikkinchisi yolg'izlik bilan bog'lik omillarni tadqiq qilishda shaxsning xarakterini o'rganadi (o'z ichki dunyosiga berilich, o'zini past baholash va hk.).

Shuning uchun yolg'izlikni sub'yektiv va ob'yektiv omillar jihatidan kompleks o'rganish ishonchli natijalarga olib kelishi mumkin, deb hisoblaymiz. Vaziyat va xarakterning o'zaro aloqadorligini yolg'izlikning teng omillari sifatida o'rganish kerak. Chunki ayrim odamlarda yolg'izlik hissi ularga notanish bo'lgan odamlar orasida paydo bo'lsa, boshqalarda har qanday xolatlarda vujudga kelishi mumkin. Ayrimlar har qanday vaziyatni shaxslararo muloqot uchun yopiq deb qarasa, boshqa birlari optimistik ruhda bo'ladilar va yolg'izlikka qarshi turishga intiladilar. O'tmishdagi shaxsiy yo'qotishlar va iztiroblar yoki tashvishlar ham yolg'izlikka sabab bo'lishi mumkin, yani odamlar bitta vaziyatga bardosh bera oladi, boshqasini hal qilishga kuchi yetmasligi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Альперович В. Д. Старость. Социально-философский анализ. - Ростов н/Д., 1998. С. 55.
2. Гримак Л. П. Резервы человеческой психики: введение в психологию активности.- М., 1987. С. 129.
3. Зозуля Т. В. К проблеме профилактики психических расстройств пожилого возраста // Психология старости и старения: хрестоматия. - М., 2003. С. 310.
4. Левина О. В. Одиночество в социально-генерационной структуре современного российского общества: геронтологический аспект: автореф. дис. ... канд. социол. наук.- Ростов н/Д., 2001.
5. Максимова С. Г. Старость: социальное отчуждение или социальное принятие? // Вестник Московского университета. Сер. 18 «Социология и политология». 2002. № 4. С. 187.
6. Матеев Д.А. Феномен одиночества и проблема нарушения коммуникации: социально-философский аспект. Автореф. дисс... канд.филос.н. – Новосибирск, 2008. 31 с.
7. Музашвили Д.З. Проблема одиночества в социальной философии XX века. Автореф. дис... канд.филос.н. – М., 2011. 25 с.
8. Мюлленайзен Б. Страх и изоляция как стрессоры // Психология состояний: хрестоматия. - М., 2004. С. 325.
9. Немов Р. С. Психология. - М., 1999. С. 518.
10. Пепло Л. Э. Одиночество и самооценка // Лабиринты одиночества. - М., 1989. С. 169-191.

Date: 19th March-2026

11. Перлман Д, Пепло Л. Э. Теоретические подходы к одиночеству // Лабиринты одиночества. - М., 1989. С. 152-168.
12. Прохорова М.В. Концептуальные особенности изучения феномена одиночества // Вестник Вятского государственного университета. Социальная философия. 2010. - С.68-75.
13. Пузанова Ж.В. Социологическое измерение одиночества. Автореф. дис... докт.соц.н. – М., 2009. 42 с.
14. Пушина В. Н. Проблема взаимоотношения поколений // Ученые записки Российского государственного социального университета. 2004. № 6(44). С. 18.
15. Рашидова Т.Р. Одиночество человека: философско-антропологическое осмысление проблемы. Автореф. дис... канд.филос.н. – М., 2012. 21 с.
16. Рубинов А. Семья, одиночество, любовь...- М., 1986. С. 3.
17. Словарь-справочник по социальной геронтологии. - Самара, 2003. С. 88.
18. Садлер У.А., Джонсон Т.Б. От одиночества - к аномии // Лабиринты одиночества.- М., 1989.
19. Ташева А. И. Проблема старости: социокультурный феномен // Психология старости и старения: хрестоматия. - М., 2003. С. 44.
20. Хамитов Н. Философия одиночества: одиночество женское и мужское. - Киев, 1995. С. 154-155.
21. Яцемирская Р. С., Беленькая И. Г. Социальная геронтология. - М., 1999. С. 65.
22. Loneliness. A Sourcebook of Current Theory, Research and Therapy / ed. by L. A. Peplau & D. Perlman. 1990. P. 3.
23. Yuldasheva M. Analysis of methodological approaches to the interpretation of the feeling of loneliness // Society and innovation - Spezial Issue – 9 (2021). – Б.50-59.

